

Юлдашев Абдумалик Ильхомович
Старший преподаватель Ташкентского
международного химического Университета,
Абдурахманова Диёра Зафар кызы
студентка Ташкентского международного
химического Университета

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАПРИМЕР, НЕЗАБЫВАЕМЫЕ ТУРИСТИЧЕСКИЕ МЕСТА

Аннотация: Данная статья анализирует перспективы развития внутреннего туризма в Узбекистане и уникальные возможности его роста через туристические объекты. Освещаются научные исследования и методологии по развитию внутреннего туризма за счёт использования культурных, исторических и природных богатств Узбекистана, изучению его влияния на национальную экономику, а также выявлению существующих препятствий.

Ключевые слова: внутренний туризм, историческое наследие, туристические объекты, туристическая инфраструктура, культурные ценности, природный туризм, экотуризм.

Yuldoshev Abdumalik Ilkhomovich
Senior lecturer of Tashkent International
University of Chemistry,
Abdurahmanova Diyora Zafar qizi
Student of Tashkent International
University of Chemistry

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN UZBEKISTAN: BY THE EXAMPLE OF UNFORGETTABLE TOURIST PLACES

Annotation: This article analyzes the prospects for the development of domestic tourism in Uzbekistan and explores unique growth opportunities through its tourist destinations. It highlights scientific research and methodologies aimed at developing domestic tourism by utilizing Uzbekistan's cultural, historical, and natural wealth, studying its impact on the national economy, and identifying existing challenges.

Keywords: domestic tourism, historical heritage, tourist destinations, tourism infrastructure, cultural values, nature tourism, ecotourism.

Yo`ldoshev Abdumalik Ilxomovich
Toshkent kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
Abdurahmanova Diyora Zafar qizi
Toshkent kimyo xalqaro universiteti talabasi

O'ZBEKISTON ICHKI TURIZMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI:

UNUTILMAS SAYYOHLIK MASKANLARI MISOLIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqola O'zbekiston ichki turizmining rivojlanish istiqbollari va uning turistik maskanlari orqali o'ziga xos o'sish imkoniyatlarini tahlil qiladi. O'zbekistonning madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklaridan foydalanish orqali ichki turizmni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish hamda mavjud to'siqlarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va metodologiyalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ichki turizm, tarixiy meros, sayyohlik maskanlar, sayyohlik infratuzilmasi, madaniy qadriyatlar, tabiiy turizm, ekoturizm.*

1. Kirish

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini strategik rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ichki turizm-bu fuqarolarning o'z mamlakati hududida sayohat qilishi bo'lib, u aholining dam olishi, madaniy-ma'naviy saviyasini oshirishi va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston ichki turizm salohiyati bo'yicha boy imkoniyatlarga ega va bu yo'nalishda rivojlanish istiqbollari kengdir.

O'zbekiston — tarixan qadimiy va boy madaniyatga ega bo'lgan davlatdir. Uning ichki turizm sohasidagi imkoniyatlari nihoyatda kengdir, chunki mamlakatda sayyohlik uchun turli xil tarixiy, madaniy va tabiiy manzilgohlar mavjud. Bu maqolada O'zbekistonning ichki turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari, mavjud imkoniyatlar va to'siqlarni tahlil qilish maqsad qilingan. Sayyohlik maskanlari sifatida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlar misolida O'zbekistonning turistik salohiyati va uning iqtisodiyotga ta'siri o'rganiladi. Samarqand-sharq durdonasi Yunesko merosi ro'yhatiga kiritilgan. Buxoro-muqaddas shahar 2500 yillik tarixga ega. Xiva-ochiq osmon ostidagi muzey, shaharning butun markazi tarixiy meros hisoblanadi. Farg'ona vodiysi-hunarmandchilik markazi, chinni buyumlar va atlas, adraslari bilam mashhur. Toshkent-poytaxt va zamonaviy sayohat markazi. Toshkent shahrida Hazrati Imom majmuasi, Ko'koldosh madrasasi, Amir Temur xiyoboni, Chorsu bozori va zamonaviy savdo komplekslari, parklari, mehmonxonalari mavjud. Undan tashqari, har bir shaharning o'z tashrif qog'ozi bor. Toshkentning tashrif qog'ozini uzoqdan ko'rinib turadi, bu Toshkent teleminorasi-Markaziy Osiyodagi eng chiroyli va baland teleminoralaridan biri. Toshkent metropolitenida esa, har bir bekati-bu turli ustalarning me'morchilik va badiiy san'at durdonasi, noyob san'at galereyasi bo'lib, O'zbek xalqining tarixiga xos sayohatidir.

Bundan tashqari, tabiiy-geografik manzara jihatidan O'zbekiston turli sayyohlik yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Farg'ona vodiysi, Zarafshon va Chotqol tizmalari, Darband darasi, Aydar ko'li, Gur-Gur ota sharsharasi kabi tabiiy maskanlar ekoturizm, agroturizm va sog'lomlashtirish turizmi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Ichki turizm shuningdek, mahalliy aholining hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash, urf-odatlarini namoyish etish orqali qo'shimcha daromad topishiga ham hissa qo'shmoqda. Shu jihatdan, ichki turizm hududiy iqtisodiyotni jonlantiruvchi omil sifatida qaratilishi mumkin.

2. Adabiyotlar sharhi

Ichki turizm bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab asarlar va maqolalarga asoslanadi. Bir qator ilmiy ishlar, xususan, Hassanov (2022) [1] va Mahmudov (2021) kabi olimlarning ishlari, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy to'siqlarini, masalan, infratuzilmaning yetishmasligi, transport tizimining rivojlanishdagi qiyinchiliklar va mehmonxona xizmatlarining kamligi haqida batafsil tahlil olib boradi.

Toshkentdagi Turizmni Rivojlantirish Markazi (2023) tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda esa, ichki turizmni rag'batlantirish uchun davlat tomonidan amalga oshirilgan yangi siyosat va qonunlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, Mamatov (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmni rivojlantirishda mehnat resurslari va turizm ta'limi masalalari ham alohida o'rganilgan.

3. Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu ilmiy tadqiqotda bir nechta metodologiyalar qo'llanilgan:

Sotsiologik so'rovlar: Turizm sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar va sayyohlar o'rtasida so'rovlar o'tkazildi. Bu so'rovlar ichki turizm bozorining hozirgi holatini va turistik xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlashga imkon berdi.

Statistik tahlil: Turizmning iqtisodiy ta'siri, mehmonxona to'ldirilish darajasi, turistik oqimlar kabi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Ekspert intervyulari: Turizm sohasi mutaxassislari bilan o'tkazilgan intervyular orqali ichki turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va yangi istiqbollar o'rganildi.

Geografik tahlil: O'zbekistonning turistik hududlari va ulardagi mavjud infratuzilma tahlil qilindi, shuningdek, mavjud sayyohlik maskanlarining geografik o'rni va ularning potentsiali baholandi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi

4.1. Ichki turizmning rivojlanish imkoniyatlari

O'zbekistonning ichki turizmi o'sishda davom etmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar o'zining noyob tarixiy yodgorliklari, arxitektura yodgorliklari va tabiiy go'zalliklari bilan sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. O'zbekistonning ichki turizm bozorida asosiy o'sish manbalari quyidagilardan iborat:

Madaniy turizm: Tarixiy shaharlar va yodgorliklar sayohatlar uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda madaniy tadbirlar, festivallar va ko'rgazmalar sayyohlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, urf-odatlar, bayramlarda tayyorlanadigan milliy ovqatlar ham alohida e'tiborga ega.[2]

Tabiiy turizm: O'zbekistonning cho'llari, tog'lari, milliy bog'lari ichki turizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ekoturizm orqali sog'lom dam olish, tabiiy boyliklardan bahramand bo'lish imkoniyati kengaymoqda. Misol uchun, Chimyon tog'lari va Amirsoy tog' kurortlari sayyohlar uchun jozibador joylar. Sog'liqni yaxshilash va tiklash uchun tibbiy va sog'lomlashtirish maskanlariga borishdir. Ulardan biri, "Humson buloq" sog'lomlashtirish maskani hisoblanadi. Ushbu markaz yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi, mushak-suyak tizimida kasalliklari bo'lgan bemorlarga dam olishni davolash orqali amalga oshiradi. Shu o'rinda, turizmning inson salomatligiga ham ijobiy ta'sirini ko'rish mumkin. "Beldirsoy" tog' kurorti Ugam-Chotqol milliy bog'ining go'zal joylari, doim yashil tog' qarag'aylari, shinam kottejlari va mehmonxonalari bilan zavqlantiradi. Dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgan bo'lib, majmua 46 gektarni tashkil etadi. O'zbekistonning eng go'zal joylaridan biri-Chorvoq suv omboridir. Sayohatchilarga toza suv havzasidan bahramand bo'lish, tog' qoyalari tepasiga chiqish, suv bo'yida hordiq chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda, mashhur bo'lgan dam olish joyi-Urug'och nefrit ko'llari. Yuqori va quyi ko'llar orasidagi masofa 4 kmni tashkil qiladi. Pastki qismida joylashgan ko'l yorqin nefrit rangi ega bo'lib, uning harorati 5 darajani tashkil etadi va harorat sabab chiroyli rangda tovlanadi. Ko'lining rangi sayohatchilarni zavqlantiradi. Jizzax viloyatidagi Zomin tog'lari va Zomin sanatoriyasi noyob iqlim sharoitlari, hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligi bilan go'zal. Zomin milliy bog'ida dengiz sathidan 2 ming metr balandlikda "Zomin" davolash va sog'lomlashtirish sanatoriyasi mavjud. Surxondaryo viloyatidagi Sangardak sharsharasi, Sariyoshi tumani hududida, Denov shahridan 30

km uzoqlikda joylashgan. Sharshara 20 metr balandlikda tosh va suv o'simliklari bo'ylab chiroyli manzar hosil qiladi. Shohimardon-O'zbekiston tog' yo'li mamlakatning sharqiy chegarasida, qirg'iz hududi bilan o'ralgan. Shohimardon 7 kilometr masofada tabiatning mo'jizasi-Qurbonko'lining ko'k ko'li joylashgan. O'zbekistonda chiroyli ko'l tizimiga Aydarko'l, Tuzkon va Sharqiy Arnasoy ko'llar kiradi. Bu kabi ko'llar ekoturizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi.[3]

Raqamli xizmatlar va axborot texnologiyalar: Onlayn bron qilish, raqamli xaritlar va mobil ilovalar orqali sayohat qilish sayyohlarga qulaylik yaratmoqda.

Yoshlar va oila turizmi: maktab o'quvchilari, talaba-yoshlar va oilalar uchun arzon va sifatli turlar taklif etilmoqda. "Yoshlarlar turizmi", "Mahalliy sayyoh" kabi dasturlar amalga oshirilmoqda. 2018-yilda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi amalga oshirilgan. 2022-yilda ushbu dastur asosida 11 million 435 mingta ichki sayohat amalga oshirilgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 1,9 barabarga oshgan.[4]

4.2. To'siqlar va muammolar

Biroq, ichki turizmning rivojlanishiga hali bir qator to'siqlar va muammolar duch kelmoqda:

Infratuzilmaning yetishmasligi: Ko'plab sayyohlik maskanlarida mehmonxonalar, transport tizimi va boshqa xizmatlar yetarli emas. Bu sayyohlarning qulayligini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Reklama va targ'ibotning sustligi: Ichki turizmga nisbatan reklama va marketing strategiyalari kam rivojlangan. Sayyohlarni jalb qilish uchun yetarli darajada targ'ibot olib borilmayapti.

Kadrlar tayyorlash: Turizm sohasida mutaxassislar yetishmasligi, shu bilan birga, turizm xizmatlarining sifati va professional darajasi bo'yicha muammolar mavjud.

4.3. Davlat siyosati va rivojlantirish strategiyalari

O'zbekiston hukumati ichki turizmni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Yangi qabul qilingan qonunlar va strategiyalar sayyohlik sohasida investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash va yangi turistik yo'nalishlar yaratishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ko'plab qulayliklar, jumladan, chegirmali transport va soliqlardan ozod qilish kabi imtiyozlar taqdim etilmoqda.

Xulosa

O'zbekiston ichki turizmi o'sish imkoniyatlariga ega bo'lsa-da, bu sohani yanada rivojlantirish uchun infratuzilma, xizmatlar sifati va kadrlar tayyorlash sohalarida tizimli islohotlar ishlab chiqarish zarur. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi turistik markazlar turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanish istiqbollari unutilmas sayyohlik maskanlari misolida ko'radigan bo'lsak, o'lkamizning hali ko'plab biz bilmagan sayohat maskanlari mavjud. Jumladan, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi G'ur g'ur ota sharsharasi o'ziga yarasha go'zal olamni kashf etadi. Undan tashqari, Navoiy viloyatidagi, Fozilmon ko'lining tundagi osmon yulduzlari bilan hayratlanarli manzarani ko'rish mumkin. Bu kabi joylarni o'rganish yildan-yilga borib jadallashmoqda, sayyohlarni e'tiborini qozonish va ularni yanada hayratga solish uchun, turizm bo'yicha mutaxassislar yangi turistik joylarni izlab topmoqdalar. Bu maskanlarga bo'lgan sayyohlik, sayyohlar uchun unutilmas sayohat hisoblanadi. Chunki, bu kabi turistik joylar takrorlamas va o'ziga xos tabiat mo'jizasidir. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash va yangi strategiyalar ichki turizmning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ular O'zbekistonning ichki turizm bozorini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Hassanov, A. (2022). O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy to'siqlari. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.

2. Mamatov, Z. (2020). Turizm va turizm xizmatlari: Yangi imkoniyatlar va istiqbollar. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
3. Mahmudov, S. (2021). Madaniy turizm: O'zbekistonda rivojlanish imkoniyatlari. Samarqand: Samarqand Universiteti Nashriyoti.
4. Toshkentdagi Turizmni Rivojlantirish Markazi (2023). Ichki turizmning o'sishi: Tadqiqot va tahlil. Toshkent: Turizmni rivojlantirish markazi.